

Mediasavodxonlik va mediaimmunitet

Hurmatli ustozlar! Bugun zamonaviy ta'limdagi eng muhim mavzulardan biri mediasavodxonlik va mediaimmunitet haqida suhbatlashamiz.



Raqamli dunyoda bolalar

Bugungi bolalar tongda uyg'oniboq telefonni qo'lga oladi, kechqurun esa u bilan uxlaydi. Har daqiqa, har soniya — ularning oldida turli videolar, postlar, yangiliklar, blogerlar, reklama va hatto sun'iy intellekt yaratgan kontentlar paydo bo'ladi. Bu jarayonni to'xtatib bo'lmaydi.



Mediasavodxonlik nima?

Biz o'quvchilarni faqat axborotni iste'mol qilishga emas, balki uni tahlil qilish, baholash va mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatishimiz kerak. Ana shu jarayon mediasavodxonlik deb ataladi.



Axborotni izlash



Tahlil qilish



Ishonchliligini baholash



To'g'ri ulashish

Mediasavodxonlik amalda

Telegramda “Ertaga butun O‘zbekiston maktablarida darslar bekor qilinadi” degan yolg‘on xabar tarqaldi. Mediasavodxonlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan inson bunday holatda nima qiladi?



Manbani tekshirish

Xabar manbasiga qaraydi.

Rasmiy kanallarni tekshirish

Rasmiy sahifalarni tekshiradi.

Tarqatmaslik

Manba ishonchsiz bo‘lsa, tarqatmaydi.

Ilmiy manbalar va tanqidiy fikrlash

Instagramda bir blogger “**Tez o’rganish siri**” haqida video chiqardi, lekin u hech qanday ilmiy manbaga tayanmagan. Mediasavodxon o’qituvchi bunday videoni “Haqiqat” deb qabul qilmaydi.



Manbani tahlil qilish



Metodni tahlil qilish



Maqsadni tahlil qilish



UNESCO mediasavodxonlik yo'nalishlari

UNESCO mediasavodxonlikni uch yo'nalishda izohlaydi:

Axborot savodxonligi

Kerakli ma'lumotni topish, uni tanqidiy tahlil qilish.



Mediasavodxonlik

Ommaviy axborot vositalarining qanday ishlashini tushunish.



Raqamli savodxonlik

Internetdan xavfsiz va samarali foydalanish.



Mediaimmunitet: ongni himoyalash

Organizmni viruslardan himoya qiluvchi immunitet bo'lgani kabi, mediaimmunitet inson ongini zararli axborotdan himoya qiladi.



- ☐ Emotsional barqarorlik
- ☐ Manipulyatsiyaga berilmaslik
- ☐ Feyk va ishonchsiz manbalarni aniqlash ko'nikmasi
- ☐ Raqamli iz qoldirish oqibatlarini tushunish
- ☐ Algoritmilar ta'sirini anglash va tanqidiy fikrlash
- ☐ Axborot ortidagi maqsadni anglash
- ☐ Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish madaniyati
- ☐ Media kontentni tahlil qilish va faktcheking ko'nikmalari



O'qituvchining o'rni

O'qituvchi mediasavodxonlikni shakllantirishda asosiy yo'lboshchidir.
O'quvchilar sizni kuzatadi, sizdan o'rnak oladi.

Manbani tekshirish

O'quvchilarga manbani tekshirishni o'rgating.

Iqtiboslarni to'g'ri keltirish


Mualliflik huquqini hurmat qilishni o'rgating.

Axborot etikasi

Ijtimoiy tarmoqda ruxsat olish, manbani ko'rsatish.

Xulosa

Mediasavodxonlik, UNESCO modeli, mediaimmunitet va pedagogning oʻrni – bularning barchasi bir butun.



Oʻqituvchi faqat dars beruvchi ustoz emas, balki axborot xurujlaridan himoyalangan, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantiruvchi tarbiyachi hamdir.

Sizing rolingiz

O'quvchilarda media vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish uchun, avvalo, sizning o'zingiz mediasavodxonlik ko'nikmalarini chuqur egallashingiz zarur.

Sizning har bir harakatingiz, darsda ishlatgan resursingiz yoshlarning axborot madaniyatini shakllantiruvchi eng kuchli ta'sir vositasidir.

